

Andijon davlat tibbiyot institute, psixiatriya va narkologiya kafedrası



**Kafedra mudiri, tibbiyot fanlari
doktori, professor**

MARK LAZAREVICH AGRANOVSKIY

Ish vaqti 8:00 – 17:00

Tel: +99891-606-20-30

e-mail: agrmark@mail.ru

PSIXIATRIYA VA NARKOLOGIYA KAFEDRASII TARIXI VA FAOLIYATI

Psixiatriya kafedrası 1959 - yil avgust oyida viloyat shifoxonasi nevrologiya bo'limi bazasida tuzilgan. Kadrlar etishmaganligi sababli Samarqand va Toshkentdan psixiatrlar taklif qilingan.

Birinchilardan bo'lib, X.A.Alimov, K.A. Mamedov, A.A. Askarov, R.S.Tursunova va boshqalar kafedrada faoliyat yurita boshlagan. 1961 – yilda kafedra mudiri bo'lib tibbiyot fanlari doktori Alimov Xudoyor Alimovich tayinlandi. U 1965 – yildan I – Toshkent davlat tibbiyot institutiga psixiatriya kafedrası mudiri etib tayinlandi. Kafedraning birinchi assistentlaridan Mamedov Kuli Alievich, tibbiyot fanlar nomzodi (1963 -1967), Askarov Akbar Asqarovich (1963 -1969), Zoxidov Javad Abdullaevich (1963-1964). SHu yillarda kafedrada quyidagi assistentlar ishlagan: tibbiyot fanlari nomzodi Iosifovich Nikolay (1964-1968), Karimov Ro'zi Karimovich (1959-1965), Qaxxarova Regina Abduraxmonovna (1961-1973). 1965 – yildan dotsent R.S. Tursunova kafedrani boshqardi va 1983 yilgacha shu lavozimda ishlab keldi. Uning raxbarligi ostida bu davrda kafedrada quyidagi xodimlar ishladi: Sodiqov Igor Denisovich (1965-1981), Xojibekova Klara Xudoyqulovna (1968-1995), Matkarimov Yaqub Matkarimovich (1969-1995), Zorkina Valentina Nikolaevna (1968-1991), Shamsiboeva Muazzam Mamadalievna (1982-1985).

1975 – yilda kafedraga M.L.Agranovskiy ishga kelgan. 1987 – yilda psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya kafedrasiga mudir etib saylandi. 1982 – yilda «Sotsialno- trudovoy prognoz bolnix periodicheskoy shizofreniey (sravnitelnoe kliniko- epidemiologicheskoe issledovanie)» mavzusidagi nomzodlik

dissertatsiyasini muddatidan oldin himoya qildi. 1992 – yilda M.L.Agranovskiy «Sootnoshenie endogennix i ekzogennix faktorov v riske razvitiya pristupov shizoferenii (kliniko –epidemiologicheskoe issledovanie)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va shu yilda M.L.Agranovskiyga professorlik ilmiy unvon berildi. Professor M.L.Agranovskiy tomonidan 1200 dan ortiq ilmiy maqolalar, hamda 127 ta ilmiy-uslubiy tavsiyalar va 12 ta darslik va 6 ta monografiya nashrdan chiqqan. Professor M.L. Agranovskiyning ilmiy rahbarligi ostida jami 14 nafar tibbiyot fanlari nomzodi va 2 nafar tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyani yoqlagan.

1986 – yilda kafedrada quyidagi xodimlar ishladi: Avanesov Aram Georgievich (1986 -1990), Кадыров Ayder Georgievich (1986-1989), Касымов Rustam Alimovich (1986-1998), Xasan-Zade Maxira Alievna (1987-2002), Jalalov SHukurullo Xudoyberdievich (1988-2001), Raximova Xanifa Nabievna (1988-1990), Inokova Gulnora Xamidovna (1989 -1990), Yusupova Munavar Abduraimovna (1992-1994), Isakov Mash'al Urmonbekovich (1992-1998), Xojiev Valijon Tuxtasinovich (1992-1994), Urmanov SHavkat Rashidovich (1993-2003), Jakbarov Oybek Odilovich (1992-1997), Usmanova Ra'no Marsovna (2000-2002). Gurman Elena Georgievna(2005 - 2016).

Hozirgi kunda kafedraga professor Agranovskiy Mark Lazarevich rahbarlik qilib kelmoqda.

KAFEDRADA O`QITILAYOTGAN FANLAR

BAKALAVRIAT

Psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiya – 5 – kurs davolash, kasb ta'limi, oliy hamshiralik ishi 3 – kurs talabalariga, 4 kurs stomatologiya fakulteti talabalariga;

Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi – 5 – kurs pediatriya fakulteti talabalariga

Tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya – 6 – kurs pediatriya fakulteti talabalariga;

Psixiatriya va tibbiyot psixologiyasi – 6 – kurs davolash fakulteti talabalariga;

MAGISTRATURA

Umumiy narkologiya – 1 – kurs magistratura talabalariga

Xususiy narkologiya – 2-3 – kurs magistratura talabalariga

KLINIK ORDINATURA

Psixiatriya va narkologiya – 1-2 – kurs klinik ordinatura talabalariga

Kafedra professor-o'qituvchilarning ro'yxati

№	F.I.SH.	Ilmiy daraja va lavozimi
1	Agranovskiy Mark Lazarevich	Kafedra mudiri, t.f.d., professor
2	Mirzaev A.A.	t.f.n., dotsent
3	Malikova Asalxon Ergashevna	Katta o'qituvchi, kafedra o'quv ishlari b o'yicha ma'sul
4	Sarbaeva Nasiba Kuchkanovna	Katta o'qituvchi
5	Usmanova Matlyuba Baytumanovna	Katta o'qituvchi
6	Muminov Raximjon Kayumovich	o'qituvchi
7	Karimov Abduvoxid Xatamovich	o'qituvchi
8	Saliev Mirzoxid Mirza-Abduraxmanovich	o'qituvchi
9	Azimova Gulchexra Azizbekovna	o'qituvchi
10	Kozimjonova Iroda Faxriddin qizi	o'qituvchi

Kafedraning ilmiy yo'nalishlari

Kafedradagi ilmiy tadqiqot ishlari bir necha yo'nalish bo'yicha olib borilmoqda:

endogen psixozlarni epidemiologiyasi, ilk yoshdagi va o'smirlik yoshdagi bolalardagi ruhiy buzilishlarni erta tashxislash, alkogolizm va giyohvandlik klinikasi, davolash va oldini olish, shoshilinch holatdagi bemorlarni kompleks davolashda psixoterapiyaning ta'siri, suitsidlarning psixopatologiyasi va ularda shoshilinch yordam, oilaviy kechuvchi endogen depressiyaning klinika va prognozi. Olingan ma'lumotlar har yili ilmiy – maqola, tezis sifatida Respublikamizning markaziy, mahalliy, hamda MDH matbuotlarida chop etilib turilmoqda.

Kafedra xodimlari o'quv – uslubiy, davolash –maslahat, ma'naviy –ma'rifiy ishlarni olib borish bilan birga ilmiy -tadqiqot pedagogik kadrlarni tayyorlashga ham katta e'tibor berib kelishyapdi. Kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlardan bir nafar tibbiyot fanlari doktori, professor, bir nafar t.f.n.,dotsent uch nafar katta o'qituvchi, 6 nafar assistentlik lavozimida faol ishlab kelmoqda.

So'ngi 5 yilda kafedra xodimlari tomonidan 910 ta ilmiy maqola va tezislari, 181 ta o'quv – uslubiy qo'llanma, 10 ta o'quv qo'llanma chop etilgan, 210 ta fan yangiliklari amaliyotga tatbiq qilinib, professor M.L. Agranovskiy tomonidan 6 ta monografiya chop etilgan, 3 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Hozirda 3 ta nomzodlik dissertatsiya himoyaga tayyorlanmoqda.

Kafedra jamoasi talabalarga chuqur bilim berish bilan birga ma'naviy – ma'rifiy, davolash - maslahat, otaliq ishlarini olib borib, respublikamizda «Tibbiyotni isloh qilish»,«Kadrlar tayyorlash milliy dasturini» amalga oshirishga

o'zlarining bor bilimini, kuch-g'ayratini sarf qilib, institut va shifoxona hayotida faol ishtirok etib kelmoqda.

Kafedra mudiri, professor: M.L. Agranovskiy har yili talabalar va yosh olimlar uchun giyohvandlik muammosining dolzarbligi to'g'risida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazyapdi.

Kafedra jamoasi va AVPND bo'limlari hamkorlikda psixiatriya kafedrasida AVPND bo'limlarida professor M.L. Agranovskiy bemorlarga tibbiy maslahatlar berish va ambulator bemorlar ko'ruvida faol qatnashadi.

Kafedrada chop etilgan o'quv-uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar

№	F.I.SH.	Darslik, uslubiy qo'llanmani nomi	Nashriyot nomi
1.	M.L. Agranovskiy N.K. Sarbaeva M.B. Usmanova	Detskaya psixiatriya (O'zbek, rus va lotin tillarida chop etilgan)	ADTI
2	M.L. Agranovskiy N.K. Sarbaeva	Tibbiyot psixologiyasi (o'zbek va lotin tillarida chop etilgan)	ADTI
3.	M.L. Agranovskiy N.K. Sarbaeva	Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishi (o'zbek va lotin tillarida chop etilgan)	ADTI
4.	M.L. Agranovskiy N.K. Sarbaeva	Umumiy va xususiy psixiatriya(o`zbek va lotin tildlarda chop etilgan)	ADTI
5.	M.L. Agranovskiy	Obshaya psixopatologiya (darslik)	ADTI
6.	M.L. Agranovskiy	Chastnaya psixiatriya (darslik)	ADTI